

MIKROQARZ/MIKROKREDIT/KREDIT TAQDIM ETISH TO'G'RSIDAGI SHARTNOMA (keraklisi tanlansin)

№ _____

Toshkent sh. _____

_____ 20__ y.

Bundan buyon matnda «MMT» deb yuritiluvchi «AGAT CREDIT» AJ MMT _____ asosida harakat qiluvchi _____ nomidan bir tomondan, va bundan buyon matnda «Qarz oluvchi» deb yuritiluvchi, _____ (JSHSHIR _____) shaxsini tasdiqlovchi hujjat _____ asosida harakat qiluvchi ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar» deb yuritiluvchilar, ushbu mikroqarz/mikrokredit/kredit taqdim etish to'g'risidagi shartnomani (keraklisi tanlansin) (bundan buyon matnda – «Shartnoma») quyidagilar haqida tuzdilar:

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Agar matn mazmunidan boshqacha ma'no anglashilmasa, ushbu Shartnoma matnida keyinchalik uchraydigan barcha atamalar mazkur bo'limda berilgan ta'riflarga ega bo'ladi:

1.1.1. **Mikroqarz/Mikrokredit/kredit** (keraklisi tanlansin) — (bundan buyon matnda – «Kredit» deb yuritiladi) — Qarz oluvchiga to'lovlik, muddatlik, qaytarish va ta'minlanganlik shartlari asosida ma'lum bir pul mablag'lari summasi shaklida taqdim etiladigan kredit mahsuloti.

1.1.2. **Qarz oluvchi** – kredit olgan va uni qaytarish, unga doir foizlar va boshqa to'lovlarni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oluvchi jismoniy shaxs yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs yoxud o'zini o'zi band qilgan shaxs.

1.1.3. **To'lovga layoqatlilik** — Qarz oluvchining umumiy daromadlarini tahlil qilish asosida aniqlanadigan, uning ushbu Shartnoma bo'yicha o'z to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati;

1.1.4. **To'lov majburiyatlari** — Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha qarzni va unga hisoblangan foizlarni mazkur Shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va muddatlarda to'lash majburiyatlari;

1.1.5. **Kredit berish sanasi** – MMT tomonidan Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan uning milliy valyutadagi hisobvarag'iga/debet bank kartasiga pul mablag'lari o'tkazilgan yoki MMT kassasidan pul mablag'lari berilgan sana.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. MMT Qarz oluvchiga uning shaxsiy ehtiyojlari uchun ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Kredit taqdim etadi, Qarz oluvchi esa olingan kreditni MMTga qaytarish va undan foydalanlik uchun foizlarni mazkur Shartnoma shartlarida to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2.2. Kredit MMT tomonidan Qarz oluvchining arizasiga asosan, uning milliy valyutadagi hisobvarag'iga/debet bank kartasiga pul o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz shaklda yoki MMT kassasidan naqd pul berish orqali taqdim etiladi.

3. KREDITLASH SHARTLARI

3.1. Kredit Qarz oluvchining MMT uchun maqbul bo'lgan shakldagi arizasi asosida quyidagi shartlarda taqdim etiladi:

3.1.1. Kredit summasi: _____ (yozuv bilan summa so'm _____ tiyin) so'm;

3.1.2. Kreditlash muddati: _____ oy;

3.1.3. Oxirgi transhni to'lash sanasi: _____ yilgacha;

3.1.4. Foizlarni to'lash muddati: har oyning 10 (o'ninchi) sanasidan kechiktirmasdan;

3.1.5. Kredit qarzini to'lash jadvalini hisoblash: annuitet usuli bo'yicha.

3.2. Kredit bo'yicha to'lovlar:

3.2.1. Foiz stavkalari:

a) asosiy qarz qoldig'iga – yillik _____ % ;

b) muddati o'tgan qarzdorlikka – asosiy qarz qoldig'iga nisbatan 1,5 baravarga oshirilgan foiz stavkasi qo'llaniladi.

3.3. MMT Qarz oluvchi olgan kreditni hisobga olish uchun unga ssuda hisobvarag'i ochadi.

3.4. Kredit mablag'lari Shartnoma tuzilganidan so'ng 3 (uch) bank ish kuni ichida Qarz oluvchining milliy valyutadagi hisobvarag'iga / debet bank kartasiga o'tkazib beriladi yoki MMT kassasi orqali naqd shaklda beriladi.

3.5. Kredit, pul mablag'lari 2.2-bandga muvofiq Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan uning milliy valyutadagi hisobvarag'iga / debet bank kartasiga o'tkazilgan sanadan yoki MMT kassalari orqali naqd shaklda berilgan sanadan e'tiboran taqdim etilgan deb hisoblanadi. Kredit, Qarz oluvchi tomonidan qarzning butun summasi va kredit bo'yicha hisoblangan barcha turdagi foizlar to'langan kuni qaytarilgan hisoblanadi.

3.6. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar kredit taqdim etilgan kundan boshlab har kuni asosiy qarz qoldig'iga nisbatan ish kuni yakunida, bir yilda 365 kun va har oydagi kunlarning haqiqiy sonidan kelib chiqqan holda, kredit to'liq qaytarilgunga qadar hisoblanadi.

4. KREDITNI QAYTARISH SHARTLARI

4.1. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha hisoblangan foizlar, asosiy qarzning bir qismi va boshqa to'lovlarni o'z ichiga olgan oylik to'lovlarni o'zi yoki o'zining ishonchli vakili orqali MMTning istalgan ofisida, shuningdek, banklarning mobil ilovalari, to'lov terminallari (infokiosklar), to'lov tizimlari orqali, bank o'tkazmasini amalga oshirish yo'li bilan, MMT yoki boshqa banklarning kassasi orqali yoxud MMT tomonidan Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan barcha hisobvaraqlaridan tegishli summani hisobdan chiqarish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin.

4.2. Qarz oluvchi hisoblangan foizlarni va asosiy qarz summasini har oyda, Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Kreditni so'ndirish jadvalida (Shartnomaga 1-ilova) ko'rsatilgan miqdorlarda va muddatlarda so'ndirish majburiyatini oladi. Bunda, 1-ilovadagi Kreditni so'ndirish jadvalida ko'rsatilgan kredit uchun to'lanadigan oylik hisoblangan foizlar summasi qat'iy emas va kredit berilgan haqiqiy sanaga, asosiy qarz muddatidan oldin yoki qisman so'ndirilgan summaga, dam olish/ish kuni bo'lmagan va bayram kunlariga bog'liq bo'ladi.

4.3. Shartnoma bo'yicha qarzni muddatidan oldin qisman so'ndirish Qarz oluvchining Shartnoma bo'yicha to'lovlari miqdori, soni, ularni aniqlash tartibi va davriyligi (muddatlari) o'zgarishiga olib kelmaydi.

4.4. Qarz oluvchi kreditni muddatidan oldin so'ndirganda, MMT tomonidan ushbu so'ndirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- to'lov kunida hisoblangan foizlar qoldig'i;
- asosiy qarz summasining qoldig'i.

Bunda dastlabki to'lovlar jadvali kreditni so'ndirish sanasi o'zgartirilmagan holda, asosiy qarz qoldig'idan kelib chiqib, annuitet usulida qayta hisoblanadi va Shartnomaning 1-ilovasi kreditning oylik to'lov summasi qismida o'z kuchini yo'qotadi. Qarz oluvchi kreditning amaldagi to'lovlar jadvalini MMT veb-saytida yoki MMT ofislarida olishi mumkin.

Shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq belgilangan navbatdagi to'lov sanasidan boshqa kunda kreditni qisman muddatidan oldin so'ndirish Qarz oluvchini navbatdagi to'lovni belgilangan kunda to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi. Agar Qarz oluvchidan kredit bo'yicha joriy to'lov uchun to'lovlar jadvalida ko'rsatilganidan ko'proq pul mablag'lari kelib tushsa, MMT ortiqcha kelib tushgan mablag'larni Qarz oluvchining krediti bo'yicha asosiy qarzni so'ndirishga yo'naltiradi va kredit summasini qayta hisob-kitob qiladi.

Har oylik to'lov sanasida Qarz oluvchi kreditni so'ndirish uchun hisobvarag'i/kartasida zarur miqdordagi pul mablag'ini shakllantirishi yoki kreditni mobil ilovalar, to'lov terminallari (infokiosklar), to'lov tizimlari orqali to'lash, bank o'tkazmasini amalga oshirish, MMT yoki boshqa banklar kassasi orqali to'lashi shart.

Bunda, agar kreditning amalda berilish sanasi ushbu Shartnomaning tuzilish sanasidan keyinroq bo'lsa, ushbu shartnomaga kreditni so'ndirish jadvali/muddatli majburiyat bo'yicha qo'shimcha kelishuvlar tuzish va yangi ilovalarni rasmiylashtirish talab etilmaydi.

4.5. Agar Shartnomaning 1-sonli ilovasi bo'lgan Kreditni qaytarish jadvalida nazarda tutilgan asosiy qarz va hisoblangan foizlarni (yoki uning bir qismini) so'ndirish sanasi bankning ish kuniga to'g'ri kelmasa, u holda so'ndirish dam olish kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi/amalga oshiriladi. Bunda to'lov miqdori oylik to'lov va dam olish kunlari soniga teng bo'ladi (dam olish/bayram kunlari uchun foizlar to'lov summasiga kiritiladi va keyingi to'lovdan chiqarib tashlanadi).

4.6. Agar Qarz oluvchi Shartnomaning 4.5-bandini inobatga olgan holda, uning 1-sonli ilovasida ko'rsatilgan sanada kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirmasa, Qarz oluvchi MMTga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun Shartnomaning 3.2.1-bandi "b" kichik bandiga muvofiq oshirilgan stavkada foiz to'laydi.

4.7. Agar Qarz oluvchining tegishli hisobvaraqlarida asosiy qarz bo'yicha qarzдорlikni so'ndirish va kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash uchun zarur pul mablag'lari yetarli bo'lmasa, mablag'larning yetishmayotgan qismi muddati o'tkazib yuborilgan deb hisoblanadi.

4.8. Qarz oluvchining majburiyatlari MMTga kreditning butun summasi qaytarilgan, kreditdan foydalanganlik uchun foizlar, kreditni o'z vaqtida so'ndirmaganlik uchun muddati o'tgan foizlar, ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq jarimalar to'langan hamda qarzni undirish bilan bog'liq xarajatlar qoplanganidan so'nggina tegishli tartibda va to'liq bajarilgan deb hisoblanadi. Bunda jarima va xarajatlar miqdori kreditni so'ndirish sanasida aniqlanadi.

4.9. Kreditni so'ndirish hisobiga kelib tushgan yoki Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasi banklaridagi har qanday hisobvaraqlarida mavjud bo'lgan pul mablag'lari qarzдорlikni so'ndirish uchun quyidagi navbatga muvofiq yo'naltiriladi yoki o'tkaziladi:

- asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;
- neustoyka (jarima, penya);
- MMTning qarzдорlikni so'ndirish bilan bog'liq boshqa xarajatlari.

5. MAXFIYLIK

5.1. Ushbu Shartnomaning shartlari, unga doir qo'shimcha kelishuvlar va Tomonlar tomonidan shartnoma bo'yicha olingan boshqa axborot maxfiy hisoblanadi hamda oshkor qilinmaydi.

5.2. Qarz oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha axborotni kredit byurosiga va garov reyestriga, mobil aloqa operatoriga va zarurat bo'lganda, sug'urta kompaniyasiga hamda MMT tomonidan ushbu shartnoma doirasida jalb etiladigan boshqa shaxslarga taqdim etish uchun o'z roziligini beradi.

5.3. MMT o'z majburiyatlarini bajarish uchun ushbu Shartnoma doirasida barcha zarur axborotni uchinchi shaxslarga berish huquqiga ega bo'ladi.

5.4. Qarz oluvchi O'zR qonunchiligiga muvofiq ushbu Shartnoma doirasida shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish uchun MMTga rozilik beradi.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. MMT quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, unga kredit ajratishdan to'liq yoki qisman voz kechish.

6.1.2. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida uning to'lovga layoqatligini tekshirish yuzasidan tegishli monitoringni amalga oshirish. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish davriyligi MMT tomonidan belgilanadi.

6.1.3. MMT quyidagi hollarda Qarz oluvchidan kreditni (hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda) muddatidan oldin qaytarishni talab qilishga va uni keyinchalik berishni to'xtatishga haqli:

- a) Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan, bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda;
- b) agar Qarz oluvchi kredit olish uchun MMTga kredit ajratish to'g'risida qaror qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan masalalar bo'yicha yolg'on yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;
- c) ushbu shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar, komissiyalar va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmagan hollarda;
- d) Qarz oluvchi asosiy qarzni to'lash va foizlarni to'lash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, to'lov muddatlari kelganda, MMT O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq, Qarz oluvchining farmoyishsiz (akseptiz tartibda) zarur pul mablag'larini hisobdan chiqarish huquqini o'zida saqlab qoladi. Shu bilan Qarz oluvchi MMTga o'zining farmoyishsiz,

akseptsiz tartibda, O'zbekiston Respublikasining istalgan banklarida ochilgan barcha hisobvaraqlaridan ushbu Shartnomaga binoan undan undirilishi lozim bo'lgan pul mablag'larining tegishli summalarini hisobdan chiqarish uchun so'zsiz va qaytarib olinmaydigan huquqni taqdim etadi. Hisobdan chiqarish jarayoni operator (uchinchi shaxs) orqali amalga oshirilishi mumkin, bunda Qarz oluvchi ushbu xizmat uchun operator tomonidan undiriladigan 2,7% gacha bo'lgan miqdordagi komissiyani to'lashga rozilik beradi. Mazkur komissiya asosiy qarz, foizlar yoki boshqa shartnomaviy to'lovlar summasiga kiritilmaydi va alohida tartibda undiriladi.

e) ushbu Shartnomada va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6.1.4. Ushbu Shartnomaning 6.1.3-bandiga muvofiq MMT talablari bajarilmagan taqdirda, MMTda Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasi banklaridagi har qanday hisobvaraqlaridan mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarish yoki asosiy qarz summasi va hisoblangan foizlarni, shu jumladan jarima, penyalarni, shuningdek boshqa xarajatlarni sud buyrug'i va/yoki notariusning ijro yozuvi asosida sud tartibida undirish huquqi vujudga keladi.

6.1.5. Ushbu Shartnoma shartlari hamda Qarz oluvchi tomonidan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga oid ma'lumotlarni Kredit byurosiga taqdim etish.

6.1.6. Ushbu Shartnoma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summalarini Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasi banklaridagi barcha hisobvaraqlari va bank kartalaridan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish.

6.1.7. Qarz oluvchiga uning ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarganligi/bajarmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, mazkur Shartnoma bilan bog'liq boshqa axborotni, shuningdek, MMTning axborot, reklama materiallari va tijorat takliflarini Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomada ko'rsatilgan manzillarga/telefon raqamlariga pochta jo'natmalari, elektron aloqa vositalari, SMS xabarlar orqali yoki boshqa usulda yuborish. Yuborilgan xat-xabarlar uchinchi shaxslar qo'lga tushishi bilan bog'liq barcha xavf-xatarlarni Qarz oluvchi o'z zimmasiga oladi.

6.1.8. Qarz oluvchining shaxsiga doir ma'lumotlarni uning o'zidan va istalgan uchinchi shaxslardan yig'ish (olish) va ularga ishlov berish, shuningdek, Qarz oluvchining shaxsiga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga, jumladan, davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalariga, moliya institutlariga, ma'lumotlar bazalari operatorlariga o'tkazish, moliya institutlari tomonidan esa barcha davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalaridan bevosita yoki uchinchi shaxslar orqali olish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va xalqaro huquq (xalqaro shartnomalar) talablarini hisobga olgan holda shaxsga doir ma'lumotlarni ommaviy manbalarda tarqatish;

6.1.9. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hollarda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan qarzдорlikni undirish bo'yicha har qanday tadbirlarni o'tkazish maqsadida, Qarz oluvchining rozilgisiz uning shaxsiy ma'lumotlarini boshqa banklarda va/yoki tashkilotlarda yig'ish va ularga ishlov berish;

6.1.10. Agar Qarz oluvchi (Qarz oluvchining vakili) va MMT o'rtasida tuzilgan tegishli shartnoma(lar)da Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini MMTga ochiq aloqa kanallari orqali uzatish (shu jumladan transchegaraviy uzatish) nazarda tutilgan bo'lsa / nazarda tutilsa, Qarz oluvchi uchinchi shaxslar tomonidan ma'lumotlarning ruxsatsiz olinishi xavfini anglaydi va bunday xavfni o'z zimmasiga oladi;

6.1.11. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari bilan bog'liq har qanday harakatni (operatsiyani) yoki shunday harakatlar (operatsiyalar) majmuini, jumladan, avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki ulardan foydalanmasdan amalga oshirish, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, yozib olish, nusxa ko'chirish, zaxira nusxasini yaratish, himoyalash, skring, skoring, tizimlashtirish, to'plash, MMT ichida va undan tashqarida saqlash (xavfsizlik va maxfiylik talablariga rioya qilgan holda), aniqlashtirish (o'zgartirish, yangilash), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, kirishni ta'minlash, jumladan, Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish huquqi bilan uchinchi shaxslarga uzatish), shaxssizlantirish, bloklash, o'chirish, yo'q qilish, shu jumladan, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid kelmasa, ushbu harakatlarni MMTning topshirig'iga binoan uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash;

6.1.12. MMT tomonidan uchinchi shaxslardan Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari olinganligi va/yoki MMT tomonidan uchinchi shaxslarga uzatilganligi to'g'risida Qarz oluvchini

xabardor qilish talab etilmaydi, bunday shaxsiy ma'lumotlar Qarz oluvchini xabardor qilmagan holda MMT tomonidan to'planishi, ularga ishlov berilishi va uzatilishi mumkin.

6.1.13. Kredit byurosidan olingan ma'lumotlarga asosan Qarz oluvchining kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzдорligi mavjud bo'lsa, Qarz oluvchini 5 (besh) kun oldin xabardor qilish sharti bilan Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish va kredit ajratishni rad etish;

6.1.14. Qarz oluvchi Kredit byurosi tomonidan kredit shartnomalarini tuzish taqiqlangan jismoniy shaxslar reyestriga kiritilgan holda, kredit berishni rad etish.

6.1.15. Qarz oluvchi tomonidan firibgarlik yoki shunga o'xshash harakatlar sodir etilganiga shubha tug'ilganda, Qarz oluvchiga xizmat ko'rsatishni to'xtatib turish va kredit summasini hisobdan yechib olish.

6.1.16. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida, MMT Qarz oluvchidan uni identifikasiyalash imkonini beruvchi hamda hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

6.1.17. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda mazkur shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish.

6.1.18. MMT halollik, ochiqlik tamoyillariga muvofiq va amaldagi qonunchilik doirasida, Qarz oluvchining Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajara olish qobiliyatini nazorat qilish maqsadida, ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida uning faoliyatini tekshirish (nazorat qilish) huquqiga ega. Tomonlar tekshirish deganda, Qarz oluvchining o'z faoliyatida foydalanadigan obyektlarni (jumladan, ular mavjud bo'lganda, ofis, omborxona, ishlab chiqarish binolarini) har chorakda ko'zdan kechirishni, shuningdek, Qarz oluvchi ishlarining joriy holatini aniqlashga qaratilgan qisqa og'zaki so'rov o'tkazishni o'z ichiga olgan harakatlarni tushunishga kelishib oldilar.

6.1.19. MMT Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tahlil qilish uchun unga har chorakda bir marta yozma so'rov yuborish orqali daromadlarni tasdiqlovchi hujjatlarni, joriy moliyaviy va xo'jalik ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni (hujjatlarni), shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni, shuningdek, mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini baholash uchun zarur bo'lgan boshqa moliyaviy va boshqaruv hujjatlarini so'rab olishga haqli.

6.1.20. MMT Qarz oluvchining rozilgisiz mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va/yoki majburiyatlarini har qanday uchinchi shaxsga o'tkazish (berish) huquqiga ega. Bunda MMT huquq va/yoki majburiyatlarni o'tkazishning tegishli sanasidan kamida 5 (besh) ish kuni oldin Qarz oluvchini kutilayotgan o'tkazish to'g'risida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi.

6.1.21. Agar xabarnoma Qarz oluvchiga mazkur Shartnomada ko'rsatilgan manzil bo'yicha yoki unda nazarda tutilgan boshqa aloqa vositalari orqali yuborilgan bo'lsa, u MMT tomonidan tegishli tarzda yuborilgan hisoblanadi. Mazkur band talablariga muvofiq amalga oshirilgan huquq va/yoki majburiyatlarni o'tkazish Qarz oluvchi uchun majburiydir.

6.1.22. MMT Qarz oluvchini kreditni so'ndirish jadvaliga muvofiq navbatdagi to'lovlarning sanasi haqida oldindan xabardor qilishga haqli.

6.1.23. Agar Qarz oluvchi mazkur Shartnoma imzolangan sanadan e'tiboran bir oy ichida kreditdan foydalanmasa, MMT bu haqda Qarz oluvchini yozma ravishda xabardor qilgan holda mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

6.1.24. MMT o'z xohishiga ko'ra ushbu Shartnomada ko'rsatilgan huquq/talablarning har qandayidan foydalanishi yoki foydalanmasligi mumkin. Ushbu huquq/talablardan foydalanmaslik yoki qisman foydalanish MMTning ulardan voz kechganini anglatmaydi va ulardan ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda foydalanish mumkin.

6.1.25. Qarz oluvchi ushbu Shartnomada belgilangan shartlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, MMT ajratilgan kreditni muddatidan oldin undirib olish huquqiga ega.

6.1.26. MMT halollik, ochiqlik tamoyillariga muvofiq va amaldagi qonunchilik doirasida, Qarz oluvchining Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajara olish qobiliyatini nazorat qilish maqsadida uning faoliyatini ushbu Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida tekshirish (nazorat qilish) huquqiga ega. Tomonlar tekshiruv deganda, Qarz

oluvchining o'z faoliyatida foydalanadigan obyektlarini (shu jumladan, ular mavjud bo'lganda ofisi, ombori, ishlab chiqarish binolarini) har chorakda ko'zdan kechirishni, shuningdek, uning ishlarining joriy holatini aniqlashga qaratilgan qisqa og'zaki so'rov o'tkazishni o'z ichiga olgan harakatlarni tushunishga kelishib oldilar.

6.1.27. MMT Qarz oluvchining to'lovga layoqatliligini tahlil qilish uchun unga har chorakda bir marta yozma so'rov yuborish orqali daromadlarni tasdiqlovchi hujjatlarni, joriy moliyaviy va xo'jalik ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni (hujjatlarni), jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni, shuningdek, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini baholash uchun zarur bo'lgan boshqa moliyaviy va boshqaruv hujjatlarini so'rab olishga haqli.

6.2. MMT quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

6.2.1. Qarz oluvchiga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va tartibda kredit ajratish.

6.2.2. Qarz oluvchi ushbu Shartnomaga muvofiq kredit bo'yicha qarz summasini to'lash majburiyatini to'liq bajargan taqdirda, uning yozma yoki og'zaki so'roviga binoan tegishli idoralarga kredit bo'yicha majburiyatlar bajarilganligi to'g'risida xat taqdim etish.

6.2.3. Ushbu Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik yuzaga kelganda, Qarz oluvchini ushbu Shartnomada ko'rsatilgan telefon raqamiga SMS-xabar yuborish yo'li bilan muddati o'tgan qarzдорlik vujudga kelgani va uning miqdori haqida xabardor qilish.

6.2.4. Agar kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari yoki Shartnomada nazarda tutilgan kredit shartnomasi shartlari (jumladan, kreditning tarkibiy o'zgarishi) qayta ko'rib chiqilsa, yoxud qarz oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin qoplanishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki kredit bo'yicha oraliq to'lovlar miqdori o'zgarsa, kredit tashkiloti kreditni qaytarish jadvalini qayta rasmiylashtirib, uni Qarz oluvchining manziliga pochta jo'natmasi yoki elektron pochta orqali yuborish yo'li bilan qarz oluvchiga taqdim etishi shart.

6.2.5. Bunda kreditni qaytarishning yangi jadvali rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran, avval amal qilgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

6.3. Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

6.3.1. Kreditdan foydalanish to'g'risida ma'lumot olish.

6.3.2. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hajmlarda, muddatlarda va shartlarda kredit berilishini talab qilish.

6.3.3. MMTning bo'lajak va muddati o'tgan to'lovlar haqida xabardor qiluvchi elektron servislaridan foydalanish.

6.3.4. Kredit bo'yicha qarzni to'liq hajmda yoki qisman muddatidan oldin qaytarish.

6.3.5. Banklarning mobil ilovasi orqali, bank o'tkazmasini amalga oshirish yo'li bilan, MMT yoki boshqa banklarning kassalari orqali mablag'larni kreditni qaytarishga yo'naltirish.

6.3.6. Shartnoma tuzilgandan so'ng, kredit pul mablag'lari berilgunga qadar, Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 2 hafta ichida MMTni bu haqda yozma ravishda xabardor qilish orqali kredit olishdan bepul asosda voz kechish.

6.4. Qarz oluvchi quyidagilarga majbur:

6.4.1. Ushbu Shartnoma shartlarida nazarda tutilgan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish.

6.4.2. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydigan shartnoma(-lar)da nazarda tutilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarish.

6.4.3. MMTdan mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq muddati o'tgan to'lovlar to'g'risida xabarnoma/talabnoma olingan kundan e'tiboran 5 kalendar kun ichida qarzni to'lash: muddati o'tgan barcha foizlar summasini, muddati o'tgan asosiy qarz summasini, shuningdek MMTning boshqa komissiyalarini to'lash.

6.4.4. Kredit olish uchun hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar, shu jumladan pasport ma'lumotlari, doimiy yashash joyi (propiska), ro'yxatdan o'tgan joyi, haqiqiy yashash joyi, ish joyi, familiyasi, ismi, otasining ismi, uy, ish yoki mobil telefon raqamlari o'zgarganligi, shuningdek Qarz oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar yuzaga kelganligi to'g'risida, shunday o'zgarishlar va holatlar yuzaga kelgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida MMTni xabardor qilish, zarur hollarda esa MMT bilan kredit hujjatlariga qo'shimcha bitimlar imzolash. Qarz oluvchi tomonidan

ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmaganligi oqibatida xabarnomalarni olmaganligi yoki ularni uchinchi shaxslar tomonidan olinganligi uchun MMT javobgar bo'lmaydi.

6.4.5. Mablag'lar Banklarning mobil ilovasi, bank o'tkazmasi yoki MMT kassasi orqali asosiy qarzni muddatidan oldin so'ndirishga yo'naltirilgan taqdirda, Qarz oluvchi kreditni so'ndirish hisobvarag'iga to'lovni amalga oshirgandan so'ng MMTni qarz so'ndirilgani haqida xabardor qilishi shart.

6.4.6. Qarz oluvchi ushbu Shartnomaga muvofiq tegishli sug'urta mukofotlarini to'liq hajmda to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi va zarur bo'lganda, MMT tomonidan 5-bo'limga asosan qilingan xarajatlarni qoplaydi.

6.4.7. Qarz oluvchining moliyaviy ahvolini yomonlashtirishi va uning ushbu Shartnoma bo'yicha MMT oldidagi majburiyatlarini bajarmasligi va/yoki lozim darajada bajarmasligi xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan hech qanday majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaslik va hech qanday choralarni ko'rmaslik;

6.4.8. MMT tomonidan nazorat funksiyalarini bajarish uchun:

- MMT xodimlariga kredit olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni har qanday manbalardan, jumladan, yashash joyiga, ish joyiga va h.k.larga tashrif buyurish orqali tekshirish va qayta tekshirish imkoniyatini taqdim etish;

- o'z faoliyatida foydalaniladigan obyektlarni (jumladan, ofis, omborxona, ishlab chiqarish binolari, agar mavjud bo'lsa) har chorakda ko'zdan kechirish imkoniyatini, shuningdek, Qarz oluvchining joriy ahvolini aniqlash maqsadida qisqa og'zaki so'rov o'tkazishni ta'minlash;

- Qarz oluvchining joriy to'lovga layoqatlilikini tahlil qilish uchun har chorakda bir marta yozma so'rov yuborish yo'li bilan daromadlarni tasdiqlovchi hujjatlarni, joriy moliyaviy va xo'jalik ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni (hujjatlarni), shu jumladan (lekin bular bilan cheklanmagan holda) buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni, shuningdek, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini baholash uchun zarur bo'lgan boshqa moliyaviy va boshqaruv hujjatlarini talab qilib olish;

- MMTning yozma so'rovi bo'yicha, so'rov olingan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida shaxsiy, biografik yoki boshqa ma'lumotlarni taqdim etish;

6.4.10. MMTning talabiga ko'ra, kredit bo'yicha to'lovlarni (asosiy qarz, foizlar va boshqa to'lovlarni) majburiy va/yoki muddatidan oldin undirish choralarni ko'rish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga olgan holda, MMT tomonidan qilingan barcha xarajatlar va ko'rilgan zararlarni qoplash;

6.4.11. MMTga mazkur Shartnoma va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan har qanday huquqlarni amalga oshirishda to'squinlik qilmaslik;

6.4.12. Qarz oluvchi mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini MMTning yozma rozilgisiz boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazishga haqli emas;

Qarz oluvchi kredit bo'yicha to'lovlarni faqat mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshirish hamda MMT xodimlariga yoki boshqa shaxslarga to'lov uchun naqd yoki naqd pulsiz shaklda pul mablag'larini taqdim etmaslik majburiyatini oladi. Agar to'lov MMT xodimlariga yoki boshqa shaxslarga naqd yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshirilgan bo'lsa (kreditni so'ndirish uchun pul mablag'lari MMT hisobvarag'iga yo'naltirilganligini tasdiqlovchi fiskal chek bundan mustasno), MMT Qarz oluvchi tomonidan to'langan summa uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. MMT Kredit bo'yicha so'ndirilmagan mablag'larni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlarni to'lashni, shuningdek, Qarz oluvchi tomonidan MMTga yetkazilgan barcha yo'qotish va zararlarning qoplanishini talab qilishga haqlidir.

7.2. Qarz oluvchi ushbu Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni talabnomada ko'rsatilgan muddatdan boshlab 8 kun ichida bajarmasa, MMT o'z xohishiga ko'ra kredit bo'yicha qarzni muddatidan oldin undirish to'g'risida sud buyrug'ini chiqarish haqida sudga murojaat qilishga yoki qarzдорlikni notarial ijro yozuvi asosida undirishga haqli.

7.3. Tomonlarning ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qo'llaniladi.

7.4. MMT yiliga olingan qarz miqdorining yarmidan ko'p bo'lmagan summadagi

foizlar, penya va neustoykani hisoblash hamda undirish, shuningdek, Qarz oluvchidan qarz summasini qaytarish maqsadida MMT tomonidan qilingan barcha xarajatlar, ko'rilgan zarar va ziyonlarni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

7.5. Neustoyka to'lash Tomonlarni o'z zimmlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan yoki yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

7.6. Kredit bo'yicha qarzni undirish to'g'risida sud qarori chiqarilganda, sud qarorida ko'rsatilgan, undirilayotgan qarz summasiga nisbatan barcha foizlar va neustoykani hisoblash to'xtatiladi.

7.7. Agar Qarz oluvchi kredit bo'yicha asosiy qarzni uni to'lash sanasigacha qaytarmasa, u MMTga asosiy qarz summasidan har bir kechiktirilgan kun uchun 1 (bir) foiz miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

7.8. Agar MMT tomonidan qarzdorlik kechilsa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini (JSHODS) to'lash majburiyati Qarz oluvchi mustaqil ravishda bajarishni o'z zimmasiga oladi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.

8.2. Mazkur Shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va da'volar, jumladan uning tuzilishi, o'zgartirilishi, ijro etilishi, buzilishi, bekor qilinishi, tugatilishi va haqiqiy emasligiga oid masalalar Tomonlar tomonidan mazkur Shartnomaning 8.4-bandida ko'rsatilgan tartibda da'volar yuborish yo'li bilan hal etiladi.

8.3. Da'vo yuborilgan Tomon, mazkur Shartnomaning 11.6-bandida ko'rsatilgan xabarnoma (da'vo) yuborish holatlari bundan mustasno, uni olgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida unga javob berishi shart.

8.4. Mazkur Shartnomadan yoki u munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volar, jumladan uning tuzilishi, o'zgartirilishi, ijro etilishi, buzilishi, bekor qilinishi, amal qilishining tugatilishi, haqiqiy emasligi, tuzilmagan deb tan olinishiga oid masalalar Tomonlar tomonidan o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.5. Nizolarni muzokaralar yoki da'volar/shikoyatlar/arizalar almashish yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, da'vosi/shikoyati/arizasi rad etilgan (yoki qisman rad etilgan) yoxud belgilangan muddatda da'vo/shikoyat/arizaga javob olmagan Tomon o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilarga murojaat qilishga haqli:

- "DS Legal Centre" MChJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudiga. Bunda nizo Hakamlik sudi Reglamentiga muvofiq ushbu hakamlik sudi raisi tomonidan ko'rib chiqiladi; hakamlik sudining hal qiluv qarori qat'iy bo'lib, qayta ko'rib chiqilmaydi;

- yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, shu jumladan, da'vo ishi yuritish yoki sud buyrug'i bo'yicha ish yuritish orqali, biroq bular bilan cheklanmagan holda, fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudiga yoki fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudiga murojaat qilish orqali;

- yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda notariusning ijro xatini olish orqali.

Bunda Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda va tartibda notariusning ijro xatini olish uchun MMTning so'zsiz murojaat qilish huquqini tan oladi va tasdiqlaydi.

9. YENGIB BO'LMAS KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

9.1. Agar Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi Shartnoma tuzilgandan so'ng yuzaga kelgan, oqilona choralar bilan oldindan ko'ra bilish yoki oldini olishning imkoni bo'lmagan favqulodda tusdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan yengib bo'lmaz kuch (fors-major) holatlari oqibatida yuz berganligini isbotlasa hamda o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarish uchun barcha mumkin bo'lgan va o'zlariga bog'liq choralarni ko'rgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi. Yengib bo'lmaz kuch holatlariga, xususan, quyidagilar kiradi: harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini va h.k.), pandemiya, davlat organlarining qarorlari.

9.2. Tomonlar yengib bo'lmaz kuch holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida ular yuzaga kelgan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida bir-birini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Yengib bo'lmaz kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ushbu Shartnoma

bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlarini amal qiladigan davrga suriladi.

10. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA OID SHARTLAR.

10.1. Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda quyidagilarga yo'l qo'ymaydilar:

- har qanday noqonuniy imtiyozlar yoki boshqa g'ayriqonuniy maqsadlar va/yoki foyda olish uchun biror shaxsning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir o'tkazish maqsadida unga bevosita yoki bilvosita biron-bir pul mablag'lari yoki qimmatli narsalarni to'lamaydilar, to'lashni taklif etmaydilar va to'lanishiga ruxsat bermaydilar;

- qonunchilikda pora berish/olish, tijoriy pora berish yoki olish sifatida malakalanadigan harakatlarni, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi amaldagi qonunchilik hamda xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaydilar.

10.2. Ushbu Shartnoma tomonlarining har biri boshqa tomonni (MMT xodimlarini) pul mablag'lari, sovg'alar berish, ular uchun ishlarni (xizmatlarni) bepul bajarish va MMT xodimini muayyan qaramlikka soladigan hamda uni rag'batlantirayotgan tomon manfaati yo'lida biron-bir harakatni amalga oshirishga yo'naltiradigan boshqa usullar bilan rag'batlantirishdan voz kechadi.

10.3. Tomonlardan birida korrupsiyaviy yoki firibgarlik holatlari yuz berganligi yoki yuz berishi mumkinligi haqida shubhalar paydo bo'lgan taqdirda, tegishli Tomon ikkinchi Tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi.

10.4. Xabardor qilingan tomon korrupsiyaviy faoliyat amalga oshirilganligi fakti tasdiqlanmaguncha, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

10.5. Tomonlar pora berish/olish natijasida yetkazilgan zararni yoki pora berish/olish to'g'risida bila turib yolg'on ma'lumot berganlik uchun yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladilar.

10.6. Tegishli tomon manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida MMT bilan bog'liqligi va affillanganligi to'g'risida MMTni xabardor qilish majburiyatini oladi.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Qarz oluvchi MMT tomonidan Shartnoma shartlarining o'z foydasiga qayta ko'rib chiqilishiga, jumladan, foiz stavkasining o'zgartirilishiga, kredit muddatining uzaytirilishiga (prolongatsiya qilinishiga) yoki kredit ta'tillarining berilishiga (kredit ta'tillari yiliga faqat bir marta beriladi) rozilik bildiradi. MMT ushbu o'zgarishlar to'g'risida Qarz oluvchini SMS-xabarnoma yoki elektron pochta orqali oldindan xabardor qiladi. Qarz oluvchi taklif etilgan o'zgartirishlardan 3 (uch) bank kuni ichida voz kechishga haqli. Agar ko'rsatilgan muddatda MMTga Qarz oluvchidan rad javobi kelib tushmasa, ushbu o'zgartirishlar Qarz oluvchi tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi va bajarilishi shart.

11.2. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

11.3. Mazkur Shartnoma Tomonlar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarni to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi. Shartnoma kredit bo'yicha kreditlash davrida amal qiladi va Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajarganidan so'ng tugatiladi.

11.4. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda uning barcha huquq va majburiyatlari Qonunchilikda belgilangan tartibda uning merosxo'rlariga o'tadi.

11.5. Shu bilan Qarz oluvchi MMTga quyidagi harakatlarni amalga oshirish uchun chaqirib olinmaydigan va so'zsiz huquq hamda rozilik beradi:

- a) MMT tomonidan "Kredit-axborot tahliliy markazi" Kredit byurosiga va/yoki Banklararo kredit byurosiga Shartnoma shartlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish (Kredit byurosiga);

- b) Qarz oluvchining mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish masalasida Qarz oluvchiga, uning turmush o'rtog'iga, shuningdek, uning qarindoshlariga va ish beruvchilariga MMTga ma'lum bo'lgan manzillar (rekvizitlar) orqali telefon raqamlariga qo'ng'iroq qilish, xatlar, elektron va SMS xabarlar yuborish;

- c) Qarz oluvchining mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish masalasida Qarz oluvchi, uning turmush o'rtog'i, shuningdek, uning qarindoshlari va ish beruvchilari bilan muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish;
- d) ish beruvchilardan Qarz oluvchining daromadlari to'g'risida ma'lumot so'rash, ish beruvchilarga Qarz oluvchiga tegishli pul mablag'larini (ish haqi, nafaqa va boshqalar) kredit bo'yicha qarzni to'lashga yo'naltirish talabi bilan murojaat qilish;
- e) Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarga qog'oz va/yoki elektron tashuvchilarda avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda va/yoki foydalanmasdan ishlov berishni, ya'ni ularni yig'ish, yozib olish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (taqdim etish, kirishni ta'minlash, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni uchinchi shaxslarga topshirishda), egasizlantirish, bloklash, o'chirish, yo'q qilishni amalga oshirishga, jumladan, Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni MMTga, moliya institutlariga, ma'lumotlar bazalari operatorlariga uzatishga, shuningdek, moliya institutlari tomonidan — barcha davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalaridan to'g'ridan-to'g'ri yoki uchinchi shaxslar orqali olishga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va xalqaro huquq talablari (xalqaro shartnomalar talablari) hisobga olingan holda shaxsga doir ma'lumotlarni umuMMTydalanishdagi manbalarda tarqatishga;
- f) Avtoso'ndirish xizmatini ulashga;

Bunda MMTning yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi bank sirini oshkor etish deb hisoblanmaydi.

11.6. Tomonlarning bir-biriga yo'llaydigan da'volari (bildirishnomalari, xatlari va boshqa hujjatlari), agar ular yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, Qarz oluvchi/MMT tomonidan imzolangan va ushbu Shartnomada ko'rsatilgan MMT/Qarz oluvchining manzillariga buyurtma xat orqali yuborilgan yoxud Qarz oluvchi/MMT tomonidan yetkazib berilib, imzo qo'ydirib topshirilgan yoki tegishincha pochta yoxud faks orqali jo'natilgan deb hisoblanadi.

Xabarnoma pochta bo'limi tomonidan pochta kvitansiyasiga qo'yilgan sanadan, kuryer tomonidan yetkazib berilgan taqdirda xabarnoma kuryer tomonidan qabul qilingan sanadan yoki xabarnoma faksimil aloqa yoxud Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yuborilgan sanadan boshlab jo'natilgan deb hisoblanadi. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

MMTning har qanday xabarnomasi, so'rovi yoki boshqa xabari, u yuborilgan sanadan keyingi uchinchi taqvim kunida Qarz oluvchi tomonidan olingan deb hisoblanadi.

Mazkur shartnoma bo'yicha kredit olish jarayonida Qarz oluvchi tomonidan masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari yoki MMT tizimi orqali taqdim etilgan tasdiqlar va SMS-kodlar (OTP) yozma hujjatdagi imzo bilan teng yuridik kuchga ega.

Tomonlar raqamli shaklda tuzilgan hujjatlar Qarz oluvchi tomonidan imzolangan bosma hujjatlar bilan teng yuridik kuchga ega ekanligiga rozilik bildiradi.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

MMT

QARZ OLUVCHI

“AGAT CREDIT” AJ MMT

F.I.Sh.: _____

Manzil: Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani,
Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 127a-uy

Manzil: _____

STIR: 304463924

“Trastbank” XAB Amaliyot boshqarmasi

MMT: 00491

h/r: 20216000900697563001

tel.: (71) 205 80 20

e-mail: info@agatcredit.uz

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

Berildi: _____

_____ -y.

JSHSHIR: _____

Tel.: _____

F.I.Sh. _____

Lavozimi _____

Shartnoma bilan tanishdim va roziman.

(Qarz oluvchining F.I.Sh. va imzosi)

Imzo _____

M.O'.

Mikroqarz/mikrokredit/kredit (keraklisini tanlang) taqdim etish to'g'risidagi 20__-yil “__”
_____dagi _____ - _____-sonli Shartnomaga 1-ilova

Kreditni to'lash jadvali / muddatli majburiyat

№	To'lash sanasi	Kredit qoldig'i	Asosiy qarzni to'lash jadvali	Foizlarni to'lashning taxminiy jadvali	Jami to'lov
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					
9					
10					
11					
12					
Jami:					